Kutubxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes-modellarni ishlab chiqish.....	900
<b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubi-yatini takomillashtirish .....	905
<b>X.A.Raximov</b>	
Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumotlar bazasida shakllanishi.....	910
<b>Ergashev Uyg'un Jabborovich</b>	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori .....	916
<b>Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich</b>	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
<b>Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
<b>Xalilova Aziza Rustamovna</b>	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
<b>Раматов Зафарбек Жуманиязович</b>	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
<b>Mannapova Shaxnoza Elshodovna</b>	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnomaga yondashuvi .....	947
<b>Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li</b>	
Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari .....	962
<b>Vaxrombek Bobojonov</b>	
“Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning ekonometrik tahlili” .....	967
<b>Bekberganova Mohira Ravshonbekovna</b>	
O'zbekiston va xalqaro amaliyotda raqamli marketing vositalaridan foydalanish: muammolar va yechimlar .....	973
<b>Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi</b>	
Условия эксплуатации и экологическая безопасность автотранспортной системы на основе энергосберегающих технологий .....	978
<b>Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна</b>	
O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
<b>Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich</b>	



Buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar .....	987
<b>Sattorov Mirjahon</b>	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории .....	991
<b>Дебердиев Анвар</b>	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlari auditini rejalashtirish masalalari.....	995
<b>Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi</b>	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций .....	1000
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович</b>	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
<b>Rahmonov Siyovush Turob o'g'li</b>	
Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri.....	1011
<b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>	
Цифровая устойчивость регионов: применение аналитики больших данных для оценки и управления экологическими рисками .....	1016
<b>Маликов Шохрух Шокирович, Камалов Шухрат Камалович</b>	
Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга .....	1024
<b>Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо кизи</b>	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца .....	1029
<b>Мухаммадиева Лола Атамурадovна</b>	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
<b>Uskenbaeva Dilnoza Voxodir qizi</b>	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
<b>Махмудова Севара Улугбековна</b>	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati .....	1048
<b>Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna</b>	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
<b>Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi</b>	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
<b>Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich</b>	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxonada darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi .....	1063
<b>Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li</b>	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов .....	1070
<b>Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи</b>	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati .....	1073
<b>Bobaev Isroiljon Abdinabievich</b>	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции .....	1078
<b>Шарипов Бахтиёр Михлибаевич</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlari hamda tendensiyalari.....	1083
<b>Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
<b>Nazarov Qilich Xolmuradovich</b>	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan .....	1092
<b>Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich</b>	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
<b>Qosimova Nodira Saidovna</b>	



# O'ZBEKISTONDA TUMANLAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH YO'LLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)



**Qosimova Nodira Saidovna**

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti assistenti

E-mail: [nodiraqosimova2024@gmail.com](mailto:nodiraqosimova2024@gmail.com)

ORCID: 0009-0001-1047-0513

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonning hududiy iqtisodiy taraqqiyoti masalalari, ayniqsa Surxondaryo viloyatining tumanlari misolida chuqur o'rganilgan. Tumanlar miqyosida mavjud iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish hamda sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha muhim jihatlarni tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida viloyatning ayrim tumanlarida iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, tuman iqtisodiyoti, Surxondaryo viloyati, hududiy rivojlanish, infratuzilma, investitsiya, qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy tahlil.

**Abstract:** This article thoroughly investigates the issues of regional economic development in Uzbekistan, with a special focus on the districts of the Surkhandarya region. Key aspects such as identifying local economic opportunities, rational utilization of resources, development of modern infrastructure, and attraction of investments are analyzed. The article also outlines strategies for achieving regional economic stability through strengthening the interrelation among agriculture, industry, and the service sector. As a result of the conducted research, practical recommendations have been developed to enhance economic activity in selected districts of the region.

**Key words:** sustainable development, district economy, Surkhandarya region, regional development, infrastructure, investment, agriculture, industry, service sector, economic analysis.

**Аннотация:** В статье детально рассматриваются вопросы регионального экономического развития Узбекистана, особенно на примере районов Сурхандарьинской области. Проанализированы ключевые аспекты выявления имеющихся экономических возможностей на районном уровне, рационального использования ресурсов, формирования современной инфраструктуры и привлечения инвестиций. Также изложены пути достижения региональной экономической стабильности за счёт усиления взаимосвязи между сельским хозяйством, промышленностью и сферой услуг. В результате проведённых исследований разработаны практические рекомендации по повышению экономической активности в отдельных районах области.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, экономика района, Сурхандарьинская область, региональное развитие, инфраструктура, инвестиции, сельское хозяйство, промышленность, сфера услуг, экономический анализ.

## KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida hududiy iqtisodiyotni izchil rivojlantirish, mamlakatning har bir hududi, ayniqsa tumanlar darajasida mavjud resurs va imkoniyatlardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida iqtisodiy barqarorlikka erishish, hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish hamda har bir tumanning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.



Shu nuqtai nazardan, tumanlar miqyosida iqtisodiy salohiyatni to'g'ri baholash, investitsiya muhitini yaxshilash, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati tumanlari misolida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot tumanlar darajasida amaliyotga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish orqali hududiy iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan tumanlar darajasida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, hududiy iqtisodiyotni muvozanatli yuritish va mahalliy iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu yo'nalishda A. Abduqodirov, Sh. Raxmatov, M. Xolbo'tayev, M. Mirzayev, Z. Yusupov, I. Karimov, N. Shodmonqulova, R. Raxmonov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash masalalari bo'yicha A. Abduqodirovning izlanishlari muhim o'rin tutadi. U o'z tadqiqotlarida iqtisodiy faollikni oshirish, ichki investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish tarmoqlarini diversifikatsiyalash orqali tumanlar barqaror rivojlanishiga erishish mumkinligini asoslab bergan [1].

Sh. Raxmatov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa hududiy ixtisoslashuv, resurslardan oqilona foydalanish va mehnat bozorining rivojlanish holati tumanlar darajasida tahlil qilingan. U Surxondaryo viloyati misolida mehnat resurslarini iqtisodiyot tarmoqlarida qayta taqsimlash orqali bandlik va daromad darajasini oshirish masalalarini o'rganadi [2].

M. Xolbo'tayev va M. Mirzayevning ilmiy ishlari tumanlar iqtisodiyotining tarmoqlar bo'yicha rivojlanish dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan. Ular, xususan, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi o'rnini baholash orqali barqarorlik omillarini aniqlaganlar [3].

Z. Yusupov va N. Shodmonqulova o'z tadqiqotlarida infratuzilmaviy rivojlanish, logistika tizimining holati hamda ichki bozorlar faoliyatini takomillashtirish orqali tumanlar darajasida iqtisodiy faollikni oshirish mexanizmlarini asoslab bergan [4].

Surxondaryo viloyati bo'yicha olib borilgan so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlarda viloyatning transchegaraviy salohiyati, agroklaster tizimi va xizmat ko'rsatish sektori rivojining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri asosiy e'tibor markazida bo'lmoqda. Bu borada R. Raxmonov hamda Z. Ismoilovning tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi [5, 6, 7].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar hududiy rivojlanish masalalarini yoritishda foydali bo'lishi bilan birga, aynan Surxondaryo viloyati tumanlari kesimidagi amaliy jihatlarni tadqiq etish zaruratini ham ko'rsatmoqda. Shu sababli, mazkur tadqiqot aynan viloyat tumanlari misolida barqaror iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, rasmiy statistika ma'lumotlari, mutaxassislarning ilmiy maqolalari va monografik ishlari asosiy manba sifatida foydalanildi. Shuningdek, hududiy iqtisodiyotni, xususan tumanlar kesimida barqaror rivojlanish omillarini aniqlash va ularni tizimli baholash maqsadida kompleks yondashuv va zamonaviy iqtisodiy tahlil uslublaridan foydalanildi hamda ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy mintaqasida joylashgan bo'lib, o'zining boy tabiiy resurslari, yuqori mehnat salohiyati hamda qishloq xo'jaligi infratuzilmasi bilan ajralib turadi. Hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari 2021–2024-yillar davrida iqtisodiyotni rivojlantirish sur'atlari va tendensiyalarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmidagi o'zgarishlar Surxondaryo viloyatida barqaror iqtisodiy o'sish jarayonining davom etayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2021-yilda 33 591,1 mlrd so'mni tashkil etgan YHM ko'rsatkichi 2024-yilga kelib 54 354,1 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'sish viloyat iqtisodiyotining sezilarli darajada kengayganini hamda umumiy iqtisodiy salohiyatining ortganini aks ettiradi. YHM o'sish sur'ati tahlil qilingan davrda yillik kesimda o'zgaruvchanlik ko'rsatgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya ijobiy bo'lib qolgan. Masalan, 2021-yildagi 109,3 % o'sish sur'ati 2024-yilda 105,9 % darajasida saqlanib qolgan.



Sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2021-yilda 6 675,3 mlrd so'mni tashkil etgan sanoat mahsuloti hajmi 2024-yilga kelib 14 888,7 mlrd so'mga yetgan bo'lib, bu sanoat sektorining rivojlanish sur'atlarining yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoat mahsuloti o'sish sur'ati 2021-yildagi 109,7 % dan 2024-yilda 108,9 % ga qisqargan bo'lsa-da, barqaror o'sish tendensiyasi saqlanib qolgan.

Tashqi savdo aylanmasida esa murakkab, biroq qisman ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. 2021-yilda 442,5 mln AQSh dollarini tashkil etgan tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 327,9 mln dollarga qisqargan, biroq 2024-yilda 416,1 mln dollarga ko'tarilib, 126,9 % o'sish sur'atiga erishgan. Bu viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari faollashganini va xalqaro bozorlar bilan integratsiya kuchayganini bildiradi.

Eksport ko'rsatkichlari 2021-yildagi 235,2 mln dollardan 2023-yilda 220,2 mln dollarga kamaygan bo'lsa-da, 2024-yilda 269,5 mln dollarga ko'tarilib, 122,4 % o'sish sur'atiga erishgan. Import hajmi esa 2021-yildagi 207,3 mln dollardan 2023-yilda 107,7 mln dollarga qisqargan, ammo 2024-yilda 146,6 mln dollarga yetib, 136,2 % o'sish sur'atini qayd etgan.

Viloyatning savdo balansi (saldo) doimiy ravishda ijobiy bo'lib, 2021-yildagi 27,9 mln dollardan 2024-yilda 122,9 mln dollarga oshgan. Bu holat Surxondaryo viloyatining eksport salohiyati import hajmidan yuqori ekanligini hamda tashqi savdo faoliyatida barqarorlik mavjudligini ko'rsatadi (1-jadval).

Ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlar Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ijobiy tendensiyalar mavjudligini hamda mintaqaning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish istiqbollari mavjud ekanini tasdiqlaydi.

1-jadval. Surxondaryo viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

	O'lchov birligi	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd. so'm	33,591.1	39,201.8	46,999.2	54,354.1
	o'sish sur'ati, % da	109.3	104.2	105.1	105.9
Sanoat mahsuloti	mlrd. so'm	6,675.3	7,229.8	8,848.6	14,888.7
	o'sish sur'ati, % da	109.7	104.2	106.3	108.9
Iste'mol tovarlari	mlrd. so'm	2,640.6	1,733.6	x	x
	o'sish sur'ati, % da	112.5	101.1	x	x
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	mlrd. so'm	23,415.5	26,755.7	32,849.3	36,650.6
	o'sish sur'ati, % da	104.2	101.7	103.6	103.1
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd. so'm	12,037.8	11,569.4	18,307.7	15,277.5
	o'sish sur'ati, % da	109.7	87.5	148.3	79.3
Qurilish ishlari	mlrd. so'm	5,868.4	6,521.9	7,596.5	12,058.6
	o'sish sur'ati, % da	112.9	101.6	110.5	108.8
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd. so'm	13,737.4	17,428.5	20,845.7	24,883.2
	o'sish sur'ati, % da	112.3	112.0	108.3	109.0
Xizmatlar, jami	mlrd. so'm	10,387.4	12,838.4	15,353.7	28,505.9
	o'sish sur'ati, % da	120.1	113.8	109.5	110.9
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh. Dollor	442.5	372.7	327.9	416.1
	o'sish sur'ati, % da	106.1	84.2	88.0	126.9
Eksport	mln. AQSh. Dollor	235.2	227.4	220.2	269.5
	o'sish sur'ati, % da	110.2	96.7	96.8	122.4
Import	mln. AQSh. Dollor	207.3	145.3	107.7	146.6
	o'sish sur'ati, % da	101.9	70.1	74.0	136.2
Saldo	mln. AQSh. Dollor	27.9	82.1	112.5	122.9
	o'sish sur'ati, % da	x	x	x	x

Umuman olganda, Surxondaryo viloyati 2021–2024-yillarda iqtisodiy o'sishning barqaror tendensiyasini namoyon etdi. Yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsuloti, qishloq xo'jaligi, qurilish ishlari, chakana savdo va

1 Tahliiliy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan



xizmatlar sohalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Investitsiyalar hajmidagi dinamikalar nisbatan o'zgaruvchan bo'lganiga qaramay, umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar viloyatning iqtisodiy salohiyatining mustahkamlanayotganini anglatadi. Tashqi savdo aylanmasining tiklanishi esa Surxondaryo viloyatining global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish istiqbollarini ochib bermoqda.

Viloyat hududidagi maydon va aholiga oid asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinganda, hududiy kattalik bo'yicha eng yirik tumanlar qatoriga Sariosiyo tumani (3,82 ming km<sup>2</sup>), Boysun tumani (3,21 ming km<sup>2</sup>), Sherobod tumani (2,73 ming km<sup>2</sup>) hamda Qumqo'rg'on tumani (1,83 ming km<sup>2</sup>) kiradi. Ushbu tumanlarning hududiy kattaligi viloyatning tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hudud kattaligi bo'yicha eng kichik maydonga ega hududlar esa Termiz shahri (0,04 ming km<sup>2</sup>) va Angor tumani (0,39 ming km<sup>2</sup>) hisoblanadi.

Aholi soni bo'yicha eng ko'p aholiga ega hudud Denov tumani bo'lib, uning aholisi 430,5 ming kishini tashkil etadi. Shuningdek, Qumqo'rg'on tumani (261,6 ming), Sho'rchi tumani (234,2 ming), Sariosiyo tumani (232,9 ming) va Sherobod tumani (214,9 ming) aholisi soni bo'yicha yetakchi o'rinlarda turadi.

Aholi zichligi jihatidan esa Termiz shahri va Jarqo'rg'on tumani ajralib turadi. Termiz shahrida aholi zichligi 207,3 ming kishini, Jarqo'rg'on tumanida esa 244 ming kishini tashkil etadi. Ushbu hududlarda aholi zichligining yuqoriligi ijtimoiy va infratuzilma xizmatlarining yanada rivojlanishini taqozo etadi(2-jadval).

2-jadval. Surxondaryo viloyati tumanlarining ayrim ko'rsatkichlari<sup>2</sup> (2024)

No	Tumanlar	Hududi (ming km <sup>2</sup> )	Aholi soni (ming kishi)	Faol korxonalar va tashkilotlar soni
1	Oltinsoy	0,57	197.4	819
2	Angor	0,39	147	1047
3	Bandixon	0,68	85.3	528
4	Boysun	3,21	127.1	903
5	Muzrabot	0,74	156.8	916
6	Denov	1,15	430.5	2467
7	Jarqo'rg'on	1,16	244.0	1627
8	Qumqo'rg'on	1,83	261.6	1242
9	Qiziriq	0,38	126.9	904
10	Sariosiyo	3,82	232.9	1169
11	Termiz.t	0,83	87.2	1290
12	Uzun	1,84	192.4	1121
13	Sherobod	2,73	214.9	1472
14	Sho'rchi	0,72	234.2	1331
15	Termiz.sh	0,04	207.3	3753

Viloyat hududida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni bo'yicha Termiz shahri (3 753 ta) hamda Denov tumani (2 467 ta) yetakchi o'rinlarda turadi. Ushbu hududlarda korxonalar sonining yuqoriligi iqtisodiy faoliyatning rivojlanganligi va biznes muhitining faolligini ko'rsatadi. Shuningdek, Angor tumani (1 047 ta), Jarqo'rg'on tumani (1 627 ta), Sherobod tumani (1 472 ta) hamda Sho'rchi tumani (1 331 ta) korxonalar soni jihatidan ahamiyatli hududlar sifatida ajralib turadi. Eng kam faol korxonalar esa Bandixon tumani (528 ta), Oltinsoy tumani (819 ta) va Qiziriq tumani (904 ta) hududlarida qayd etilgan bo'lib, bu hududlarda iqtisodiy faollik nisbatan past ekanligini bildiradi.

Olib borilgan hududiy-iqtisodiy tahlillar natijalariga ko'ra, Denov tumani maydon jihatidan o'rtacha ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-da, aholisi soni va faoliyat yuritayotgan korxonalar soni bo'yicha viloyatda yetakchi hisoblanadi. Bu holat mazkur tumanning iqtisodiy rivojlanganligi, ish bilan bandlik darajasining yuqoriligi va biznes muhitining faolligini tasdiqlaydi. Termiz shahri esa nisbatan kichik hududga ega bo'lishiga qaramay, yuqori aholi zichligi hamda faol korxonalar va tashkilotlar sonining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu ko'rsatkichlar shaharni viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy markazi sifatida alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, maydon jihatidan yirik bo'lgan Boysun va Sariosiyo tumanlarida aholining nisbatan kamligi hamda korxonalar sonining o'rtacha darajada bo'lishi ushbu hududlarning iqtisodiy faolligini cheklayotgan omillar mavjudligini anglatadi. Bu holat transport-logistika imkoniyatlari, infratuzilmaning yetarli darajada

2 Tahliiliy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan



rivojlanmagani yoki demografik omillar bilan izohlanishi mumkin. Kichik maydonga ega bo'lishga qaramay, yuqori iqtisodiy faollik ko'rsatkichlariga ega hududlar, xususan Termiz shahri, samarali hududiy boshqaruv va iqtisodiy salohiyatni to'g'ri yo'naltirishning ijobiy namunasi sifatida ko'rilishi mumkin.

Shu munosabat bilan, viloyatdagi har bir hududning o'ziga xos tabiiy, demografik va iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda hududiy rivojlanishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuv iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar asosida viloyat tumanlarida mavjud iqtisodiy salohiyatni to'liq ishga solish, resurslardan samarali foydalanish va hududiy rivojlanishni jadallashtirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari surilmoqda:

Hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlash va ixtisoslashtirish.

Har bir tumanning tabiiy-iqlimiy, demografik va infratuzilmaviy xususiyatlari asosida iqtisodiy ixtisoslashuv yo'nalishlarini aniqlash lozim. Masalan, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar, mineral resurslar, turizm salohiyati yoki transport-logistika imkoniyatlari tahlil qilinib, ular asosida rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

Resurslardan oqilona va barqaror foydalanish.

Tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanishda ekologik barqarorlik, energiya tejamkorligi va innovatsion yondashuvlarga e'tibor qaratish zarur. Bu, ayniqsa, Boysun va Sariosiyo kabi yirik, ammo past iqtisodiy faollikka ega tumanlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirish.

Transport, aloqa, energetika va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini modernizatsiya qilish iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Ayniqsa, uzoq va tog'li hududlarda infratuzilma loyihalarini ustuvor tarzda amalga oshirish talab etiladi.

Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Tumanlarda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun soddalashtirilgan tartiblar, soliq imtiyozlari hamda investorlar uchun qulay muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Denov va Termiz tajribasi asosida boshqa hududlarda ham investorlar uchun klaster yondashuvi va tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.

Faol korxonalar soni kam bo'lgan tumanlarda aholining iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, mikromoliyalashtirish va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish lozim.

Ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va inson kapitalini rivojlantirish.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik sohalaridagi xizmatlar hududiy iqtisodiyotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Shu bois mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash, kasb-hunar markazlarini kengaytirish va yoshlar uchun bandlik dasturlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Tumanlar miqyosida iqtisodiy faollikni oshirish uchun kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir tumanning o'ziga xos resurs salohiyati, geografik joylashuvi va demografik tarkibini inobatga olgan holda, tarmoq va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Bunda zamonaviy infratuzilma, oqilona boshqaruv, innovatsion texnologiyalar va faol investitsiya siyosati asosiy omillar sifatida xizmat qilishi lozim.

Mazkur yondashuv orqali viloyatning iqtisodiy barqarorligi, aholining farovonlik darajasi va hududlararo tenglikni ta'minlashga erishiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son Farmoni.: <https://lex.uz/docs/-4776669>
2. Abduqodirov A. (2020). Hududiy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot.
3. Raxmatov Sh. (2019). Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va tumanlar barqarorligini ta'minlash. TDIU Ilmijurnali, 2(11), 112–120.
4. Xolbo'tayev M., Mirzayev M. (2021). Hududiy ixtisoslashuv va agroklastarlar: Surxondaryo tajribasi. Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali, 3(6), 45–55.
5. Shodmonqulova N. (2022). Hududiy infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. O'zbekiston iqtisodiyoti va innovatsion rivojlanish jurnali, 4(9), 88–97.
6. Ismoilov Z., Omonov A. (2023). Economic efficiency of poultry egg production in Surkhandarya province, Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 371, 01009. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101009>
7. Ismoilov Z. (2025). Prospects for the development of the poultry industry in Surkhandarya region. Green Economy and Development, 3, 752–756. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15161750>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>